

SPORT TERMINLARINING MILLIY MENTALITETNI IFODALASHDAGI O'RNI: REALIYA VA LAKUNALAR MISOLIDA

Barotov Javoxir Ravshan o'g'li,
Termiz davlat universiteti magistranti
Email: javohirbaratov@mail.ru
DSc, dotsent Z. Narmuratov

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sport terminlarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sport tilida uchraydigan realiya va lakunalar milliy madaniyat, xalq dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyatlar hamda kommunikativ an'analarni aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sifatida o'rganiladi. Ayniqsa, futbol leksikasi misolida ingliz va o'zbek tillaridagi sport terminlarining semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida sport terminologiyasi nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy identitet va madaniy tafakkurni ifodalovchi lingvomadaniy hodisa ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sport lingvomadaniyati, sport terminologiyasi, realiya, lakuna, milliy mentalitet, futbol leksikasi, lingvokulturologiya, sport diskursi, muqobilsiz leksika, madaniy tafovut, fanatlar nutqi, metaforik birliklar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль спортивных терминов в выражении национального менталитета на основе лингвокультурологического подхода. В исследовании рассматриваются спортивные реалии и лакуны как важные лингвистические единицы, отражающие национальную культуру, мировоззрение народа, социальные ценности и коммуникативные традиции. Особое внимание уделяется сравнительному анализу семантических, прагматических и лингвокультурологических особенностей спортивной терминологии в английском и узбекском языках на примере футбольной лексики. В результате исследования обосновывается, что спортивная терминология выступает не только как средство коммуникации, но и как лингвокультурологическое явление, выражающее национальную идентичность и культурное мышление.

Ключевые слова: спортивная лингвокультура, спортивная терминология, реалия, лакуна, национальный менталитет, футбольная лексика,

лингвокультурология, спортивный дискурс, безэквивалентная лексика, культурные различия, речь болельщиков, метафорические единицы.

ABSTRACT

This article analyzes the role of sports terms in expressing national mentality based on a linguocultural approach. The study examines sports-related realia and lacunae as important linguistic units that reflect national culture, worldview, social values, and communicative traditions. In particular, a comparative analysis is conducted on the semantic, pragmatic, and linguocultural features of sports terminology in English and Uzbek languages, with special reference to football vocabulary. The findings of the study demonstrate that sports terminology functions not only as a communicative tool but also as a linguocultural phenomenon that expresses national identity and cultural thinking.

Key words: *sports linguoculture, sports terminology, realia, lacuna, national mentality, football vocabulary, linguoculturology, sports discourse, non-equivalent lexis, cultural differences, fan speech, metaphorical units.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zamonaviy lingvistikaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Lingvokulturologiya tilni xalq madaniyati, tafakkuri va milliy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi [1]. Shu nuqtai nazardan sport lingvomadaniyati ham jamiyatning milliy mentaliteti, ijtimoiy qarashlari va kommunikativ an‘analarini aks ettiruvchi muhim soha sifatida qaraladi [2]. Sport terminologiyasi nafaqat musobaqa jarayonlarini ifodalovchi leksik birliklar tizimi, balki xalqning madaniy tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi vosita hamdir [3]. Ayniqsa, futbol leksikasida uchraydigan ayrim terminlar milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi realiyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ba’zi sport terminlarining boshqa tillarda to‘liq ekvivalentga ega emasligi esa lakunalarni yuzaga keltiradi [4]. Bu holat tarjima jarayonida lingvomadaniy tafovutlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Realiza va lakunalarga to‘xtalar ekanmiz lingvomadaniyat tushunchasini yaxsh anglab yetmog‘imiz lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (METHODS)

Terminologiyaning tarixiy ildizlariga e‘tibor qaratilganda, sport terminlarining taraqqiyot bosqichlari, terminlarning milliy o‘ziga xosligi, ularning tasnifi va tavsifi kabi masalalar tadqiq yo‘nalishida A. Rey, J.K. Seyjer, O. Vüster, Yu.N. Marchuk, J. Kornyu, R. Temmermen, V.M. Leychik, S.I. Omarova, M.A. Parjeva, Sh.D. Shelov,

O.S. Axmanova, shuningdek, A. Hojiev, H. Dadaboyev, G.M. Ismoilov, Z.A. Abdullaeva, A. Nurmonovning tadqiqotlari alohida e'tiborga molik.[5,6,7].

Sport terminologiyasi yo'nalishida R.V.Vaynz, R.V.Popov, A.N. Shafolatov, I.Yu. Xmelevskaya, Z. Murzoev, Ye.I. Gureeva kabi xorijiy olimlar, shuningdek, M.X. Boboyorov, X.A. Sarimsakov singari o'zbek olimlari o'z tadqiqotlarini yaratishgan. Qolaversa, V.D. Shvayko, I. Overana, P.G. Nurov, O.Q. Yusupov, I.K. Mirzayev, O.S. Ahmedov, P.P. Nishonov, D.I. Xodjaeva kabi olimlar tomonidan qiyosiy-cho'g'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy terminshunoslikning nazariy asoslari dalillangan, terminologiya va uning turli xususiyatlari haqida lug'atlar, monografik asarlar hamda dissertatsiyalar chop ettirilgan.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, lingvomadaniy, semantik, diskursiv hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida ingliz va o'zbek sport terminologiyasidagi realiya va lakunalarning milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rnini tahlil qilindi. Shuningdek, sport diskursida qo'llaniladigan terminlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashda deskriptiv va tarjimashunoslik tahlili metodlari ham qo'llanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sport terminologiyasi milliy mentalitetni ifodalovchi muhim lingvomadaniy vositalardan biri hisoblanadi. Sport diskursida qo'llaniladigan ayrim terminlar va iboralar xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qarashlari hamda ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi [8]. Ayniqsa, futbol leksikasida uchraydigan metaforik birliklar va emotsional ifodalalar sport tilining nafaqat kommunikativ, balki madaniy vazifani ham bajarishini ko'rsatadi [14].

Tahlillar davomida ingliz va o'zbek sport terminologiyasi o'rtasida muayyan lingvomadaniy tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, ayrim sport terminlari bir tilda faol qo'llanilib, boshqa tilda aynan mos ekvivalentga ega emasligi sababli lakunalar yuzaga keladi [9]. Bu holat tarjima jarayonida qo'shimcha izohlash, tavsifiy tarjima yoki madaniy moslashtirish usullaridan foydalanishni talab qiladi [10].

NATIJALAR (RESULTS)

Sport lingvomadaniyatida realiya va lakunalar turli millatlarning sportga oid tafakkuri, an'analari va kommunikativ madaniyatini ifodalovchi muhim birliklar hisoblanadi. Ular orqali bir xalqning sportga bo'lgan munosabati va milliy mentaliteti namoyon bo'ladi [11].

1. "Hat-trick" (realiya)

Misol: *He scored a hat-trick in the match.*

Tahlil: “Hat-trick” termini ingliz futbol madaniyatiga xos realiya bo‘lib, bir o‘yinchi tomonidan bitta o‘yinda 3 ta gol urilishini bildiradi. Bu termin ingliz sport an‘anasidan kelib chiqqan bo‘lib, boshqa tillarda aynan bir so‘z bilan ifodalanmaydi, ko‘pincha tavsifiy tarjima qilinadi (“bir o‘yinda uch gol urish”). Bu holat sport terminologiyasida madaniy realiyaning mavjudligini ko‘rsatadi [12,13].

2. “Fair play” (realiya)

Misol: *The team was praised for its fair play.*

Tahlil: “Fair play” ingliz sport madaniyatida juda muhim qadriyat bo‘lib, halollik, adolat va sport etikasiga rioya qilishni anglatadi. O‘zbek tilida uning to‘liq bir so‘zli ekvivalenti yo‘q, u ko‘pincha “halol o‘yin” deb tarjima qilinadi. Bu esa lingvomadaniy realiyaning mavjudligini tasdiqlaydi [14,15].

3. “Offside” (lakuna muammosi)

Misol: *The goal was canceled due to offside.*

Tahlil: “Offside” termini futbol qoidalariga tegishli bo‘lib, ko‘plab tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadi, ammo uning semantik tushunchasi hamma madaniyatlarda bir xil darajada shakllanmagan. Ayrim hollarda bu termini tushuntirish uchun qo‘shimcha izoh talab etiladi, bu esa qisman lakuna muammosini yuzaga keltiradi [16].

4. “Penalty shootout” (lakuna)

Misol: *The match ended in a penalty shootout.*

Tahlil: Bu termin ingliz futbol tizimiga xos bo‘lib, o‘yinda durang holatda g‘olibni aniqlash uchun penaltilar seriyasini anglatadi. O‘zbek tilida “penalti seriyasi” deb ishlatilsa-da, bu jarayonning madaniy va sport tizimidagi o‘rni to‘liq ekvivalentda ifodalanmaydi, bu esa lakuna elementini yuzaga keltiradi [17,18].

5. “Extra time” (realiya + qisman lakuna)

Misol: *They won the match in extra time.*

Tahlil: “Extra time” – asosiy vaqt tugagandan keyin qo‘shib beriladigan vaqt. Bu termin ko‘plab sport madaniyatlarida mavjud bo‘lsa-da, uning qo‘llanishi va qoidaviy ahamiyati turli mamlakatlarda farq qiladi. Shu sababli u universal bo‘lsa ham, lingvomadaniy nuqtai nazardan qisman lakuna xususiyatini ham ko‘rsatadi [19,20].

Sport terminologiyasidagi realiya va lakunalar milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklardir. Ular sport tilining nafaqat kommunikativ, balki madaniy funksiyasini ham ochib beradi. Ayniqsa, futbol terminologiyasida bu hodisa yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Mazkur maqolada sport terminlarining milliy mentalitetni ifodalashdagi oʻrni realiya va lakunalar misolida lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, sport terminologiyasi faqatgina sport jarayonlarini ifodalovchi leksik birliklar tizimi emas, balki muayyan xalqning madaniy tafakkuri, qadriyatlari va kommunikativ xulqini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi.

Tahlillar davomida ingliz va oʻzbek sport terminologiyasida realiya va lakunalar mavjudligi aniqlandi. “Hat-trick”, “fair play” kabi realiyalar ingliz sport madaniyatiga xos boʻlib, ular ortida maʼlum tarixiy va madaniy anʼanalar yotadi. Bu birliklar boshqa tillarga toʻliq ekvivalentda tarjima qilinmaydi, balki tavsifiy yoki izohli shaklda beriladi. Bu esa sport tilida madaniy yuklamaning kuchli ekanligini koʻrsatadi. Shuningdek, “offside”, “penalty shootout”, “extra time” kabi terminlar tahlili shuni koʻrsatdiki, ayrim sport tushunchalari universal boʻlsa-da, ularning semantik chegaralari va kommunikativ qoʻllanishi turli tillarda bir xil darajada shakllanmagan. Natijada lakunalar yuzaga keladi va bu holat tarjima jarayonida madaniy moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat aniqlanganki, sport terminlari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki milliy mentalitetni ifodalovchi ekspressiv va metaforik vosita sifatida ham faol qoʻllaniladi. Xususan, futbol muxlislari nutqi, sport sharhlari va ommaviy axborot vositalaridagi sport diskursi milliy lingvomadaniy xususiyatlarni yaqqol namoyon etadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Maslova V.A. *Lingvokulturologiya*. – Moskva: Akademiya, 2001.
2. Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. *Yazik i kultura*. – Moskva: Indrik, 2005.
3. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. – Toshkent: Sangzor, 2006.
4. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. – Cambridge University Press, 2010.
5. Alain Rey, vocabuliste français, textes réunis et présentés par François Gaudin, Limoges, Éd. Lambert-Lucas, 2011. – R. 58; Sager J.C. *A Practical Course in Terminology Processing*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1990. – R. 262.
6. Eugen Wüster. *Introducción a la teoría general de la terminología y a la lexicografía terminológica*, Universitat Pompeu Fabra, Barcelona, 2003.
7. Marchuk Yu.N. *Komp'yuternaya lingvistika*. – M.: Vostok-Zapad, 2007. – S. 317; Cornu, Gérard. *Linguistique juridique*, Paris, Montchrestien, 1990. – P. 19.

8. Карасик В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Волгоград: Перемена, 2002.
9. Арнольд И.В. *Стилистика современного английского языка*. – Москва: Флинта, 2010.
10. Ахманова О.С. *Словарь лингвистических терминов*. – Москва: Советская энциклопедия, 1969.
11. Комиссаров В.Н. *Теория перевода*. – Москва: Высшая школа, 1990.
12. Komissarov V.N. *Teoriya perevoda*. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
13. Karasik V.I. *Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs*. – Volgograd: Peremena, 2002.
14. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988.
15. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. – London: Routledge, 2011.
16. Shuttleworth M., Cowie M. *Dictionary of Translation Studies*. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.
17. Тер-Минасова С.Г. *Язык и межкультурная коммуникация*. – Москва: Слово, 2008.
18. Гак В.Г. *Сопоставительная лексикология*. – Москва: Международные отношения, 1977.
19. Zuckermann G. *Language Contact and Lexical Enrichment in Israeli Hebrew*. – London: Palgrave Macmillan, 2003.
20. Halliday M.A.K. *Language as Social Semiotic*. – London: Edward Arnold, 1978.
21. Trudgill P. *Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society*. – London: Penguin Books, 2000.
22. Apresjan Y.D. *Lexical Semantics*. – Moscow: Nauka, 1995.